

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Amir Temur davrida ilm-fan taraqqiyoti va madaniyatning o'rni.

Najmiddinova Sarvara Samariddinovna

Olimjonova Zarnigor Shokirjon qizi,

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat

*Institutining Farg'ona Mintaqaviy filialining
talabalari*

Annotatsiya: Mazkur maqolada, Amir Temurning tarixiy imperiyasi va madaniyatlar o'chog'i bo'lgan osiyoda temuriylar sulolasini asos solinganidan so'ng ilm - fan ham taraqqiy eta boshlaganligi va Amir Temur haqida ma'lumotlar, uning rivojlanishi, tarixdagi o'rniga va o'zining qadriyatlariga oid muhim nuqtalari ta'riflangan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar, madaniyat, imperiya, san'at, sulola, tarix, Shahrisabz, ilm-fan.

Mashhur davlat arbobi, sarkarda, shoh, ilm-fan va madaniyat asoschisi Amir Temur davrida ilm-fan bilan birgalikda madaniyat va ta'lim ham yuksak darajada yuksaldi. Siyosiy maydonga qadam qo'yganida Amir Temur 24 yoshga kirgandi. Mamlakat parokanda, mahalliy siyosiy kuchlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar avj olgandi. Hattoki, Chingizxon avlodlari Movarounnahrga tez-tez bosqin uyushtirib turgan bira vaqtida bu qiyinchiliklardan o'tib osiyoni isloq qila olgan siymodir.

Taxminan bir asr davom etgan bu davrda Movarounnahrning qiyinchiliklarini tortgan odamlar bilan birgalikda yirik siyosiy arboblariyu din peshvolarigacha juda ham og'ir kun kechirdilar. Jamiyatga ozodlikka va taraqqiyotga bo'lgan intilishlarni o'zida mujassam etgan xaloskor, dohiy zarur vaqtida. Taqdir taqozosi bilan Amir Temur ana shunday xaloskor va chinakam yo'lboshchi sifatida tarixda paydo bo'ldi. 1370 yilda Amir Temur Balxda bo'lib o'tgan qurultoyda Movarounnahrning ulug' amiri deb e'lon qilgan. Tarqoqlikni bartaraf etib, ayrim o'lkalarни yagona davlatga birlashtirish Amir Temurning asosiy maqsadi edi. U davlatning poytaxti qilib So'g'dyonanining qadimiy poytaxti bo'lgan Afrosiyob xarobalari yonidagi Samarqandni belgiladi va yangi shaharga asos soldi. Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'i, shuningdek, Farg'ona va Shosh viloyatlarini birlashtirib o'ziga bo'ysundirgandan keyin Amir Temur boshqa mamlakatlarga harbiy yurishlarga kirishdi. Amir Temur sultanati O'rta Osiyoda 35 yil (1370-1405) hukm surdi. U Markaziy Osiyo hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi, Hind va Gangadan to Sirdaryo va Zarafshongacha, Tyan-Shandan to Bosforgacha ulkan imperiya barpo etdi.

Amir Temur harbiy yurishlarining bilvosita oqibatlari ulkan ahamiyatga ega: u Xitoyda Min sulolasini davlat boshiga kelganda mo'g'ullarning Xitoya solayotgan xavfinining oldini oldi; Oltin O'rdani yengib Moskva Rusi uchun ham xuddi shunday yordam ko'rsatdi. 1402 yilda usmonlilar sultonasi Boyazid ustidan Yevropa uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan g'alabani qozonib, usmonlilarning Konstantinopolni istilo etishlarini yarim asrga surib yubordi. Frantsuz tarixchisi R.Grusse 20-asr boshlarida "Amir Temurning Boyazid ustidan g'alabasi xristian olamini asrab qoldi", deb yozgan edi.

Tarix Amir Temurni makedoniyalik Iskandar, Doro 1, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorga qo'yadi. Amir Temur mingta jang o'tkazib birontasida ham yengilmagan mashhuri zamon

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

sarkarda sifatida, davlat tuzilishi ishlariga, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan siyosiy arbob sifatida tarixga kirdi. Amir Temur tarafidan tarqoq viloyatlar yagona davlatga birlashtirilib, markaziy hokimiyat tuzilib barqarorlashgandan keyin, mamlakat iqtisodiyoti mustahkamlandi, savdo va hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojiana boshladi, qo'shni va uzoqdagi mamlakatlar bilan savdo-xo'jalik aloqalari kengaydi. Amir Temur hayotlik paytida davlat boshqaruvi haqida "Temur tuzuklari" degan nomda mashhur bo'lgan maxsus kitob yozilgan edi. Unda bu mashhur davlat arbobi va sarkardaning harbiy san'atga, davlat tuzilishi va mamlakatni boshqarishga oid qarashlari aks etdi.

"Kuch adolatda" shiori butun Amir Temur davlati hududida axloqiy va ma'naviy mezonga aylandi.

XIV-asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr Yaqin va O'rta Sharqning tijorat, iqtisod va madaniyat markaziga aylanib bordi. Chingizzon qo'shinlari tomonidan tag-tubigacha vayron qilingan Samarqand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent, Marv, Hirot kabi va boshqa qadimiy shaharlar obod bo'la boshladi. Masjidu madrasalar, maqbaralar, karvonsaroylar va hammomlar qurildi. Ulkan va bepoyon mamlakatning poytaxti rutbasini olgan Samarqand, Amir Temurning niyatiga ko'ra, kurayi zamindagi eng chiroyli shaharga aylanishi kerak edi. Samarqand O'rta Sharq va Markaziy Osiyoning eng yaxshi me'morlari to'plangan shaharga aylandi. Me'mor va bunyodkor ustalarning bahamjihat sa'y-harakatlari tufayli jahon me'morchiligidagi yangi yo'nalish paydo bo'ldi va u ijodning go'zal namunalarini in'om etdi.¹

Amir Temur hayotlik paytida bunyod ettgan o'ndan ortiq me'moriy yodgorliklari meros bo'lib qolgan. Bu esa bizning madaniyatimizning bir bo'lagidir. Amir Temur XII-asrda yashagan islom ilohiyotchisi, shoir va mutafakkir Xoja Ahmad Yassaviy uchhun Turkiston shahridagi kichik daxma ustida ulug'ver maqbara bunyod ettirgan. Madaniy meros bugungi kunda ham o'zining betakrorligini yo'qotmagan. Xoja Ahmad Yassaviy adolatni va komillikka erishish g'oyalarini targ'ib etguvchi "yassaviya" tariqati asoschisi bo'lgan edi. Amir Temur Xoja Ahmad Yassaviyni o'zining piri deb bilgan. Amir Temur va Temuriylar sulolasi vakillarining gumanitar sohalarga alohida e'tibori tufayli XIV-XVI asrlarda yuksak ilmiy va ijodiy yutuqlarga erishildi. Amir Temur va Temuriylarning ayollarga bo'lgan mehribonlarcha munosabatlarni alohida ta'kidlab o'tish joiz. Amir Temur o'zining suyukli rafiqasi Bibixonim sharafiga Samarqandda ulug'ver jome masjid qurdirdi. Bibixonim nomi bilan ataluvchi bu masjid Amir Temur davrining eng mahobatli binolaridan biri sanaladi. Masjid 1399-1404 yillarda qurilgan va hozirga qadar yaxshi saqlangan. Buyuk bobokalonidan o'rnak olgan boburiy Shohjahon suyukli rafiqasi Mumtoz Mahal begin uchun 1652 yilda maqbara - dunyo mo'jizalaridan biriga aylangan nodir me'moriy yodgorlik qurdirdi. Amir Temur va Temuriylar davrida adabiyot, amaliy va tasviriy san'at rivojlandi. Ayniqsa, islomga qadar mavjud bo'lgan devoriy monumental rasm va kitob miniatyurasi san'ati yuksaldi. Amir Temur tarixda mohir diplomat va davlatlar o'rtasida yaxshi munosabatlarni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy aloqalarini yo'lga qo'yish tarafdori sifatida chuqur iz qoldirdi. U Yevropa va Osiyo o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdi. Sohibqiron dunyoning turli mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatdi: bir tarafdan – Xitoy, Hindiston, ikkinchi tarafdan – Frantsiya, Angliya, shuningdek, Usmonlilar imperiyasi, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar. Amir Temur savdo-iqtisodiy munosabatlар orqali xalqlar va mamlakatlar orasida yagona makon yaratishda misli ko'rilmagan yutuqlarga erishdi. U Ispaniya qiroli Genrix III Frantsiya qiroli Karl IV, Angliya qiroli Genrix

¹ Ziyoruz.comsayti

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

saroylariga elchilar yo'lladi; ayni paytda o'z saroyida ispan, frantsuz, ingliz, xitoy va boshqa xorijiy mamlakatlarning elchilarini qabul qildi.

Amir Temur umrining ko'p qismini yurishlarda o'tkazdi. Sharqqa qilgan yurishi paytida Amir Temur 1405 yil 18 fevral kuni O'tror shahrida vafot etdi. Uning jasadi Samarqandga olib kelinib, 23 fevral kuni Go'ri Amirda, nabirasi Muhammad Sulton daxmasida dafn qilindi.

Yevropalik olimlar Amir Temur va uning faoliyati haqida bundan to'rt yuz yil ilgari gapira boshlagan edi. 1553 yilda Florentsiya (Italiya)da italyan olimi Perondino qalamiga mansub "Skiflik buyuk Tamerlan" kitobi bosilib chiqdi. Bu Yevropada Amir Temur haqidagi ilk ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Yevropa tillarida (ispan, ingliz, frantsuz) e'lon qilingan yozma manbalar ichida birinchi o'rinda ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)" turadi. Buyuk Rembrandt Boburiylar zamonidagi hind miniatyuralardan ilhomlanib, Amir Temurni uning vorislari Umarshayx, Zahiriddin Bobur, Humoyun va Akbar davrasida tasvirlaydi.²

XVI asrda yashagan mashhur ingliz shoiri va dramaturgi Kristofer Marloning "Buyuk Temur" nomli tragediyasida yosh Temurbek o'zining tengsiz aqli, salohiyati va shijoati bilan jahon tarixidagi qudratli podsholardan biriga aylangani namoyish etilgan. Tragediya XVI asrgacha sahnadan tushmay, Angliyada teatr mavsumini boshlab bergen. Bir necha yevropalik bastakorlar operalarda Amir Temur obrazini yaratganlar. XVI asr boshida italyan bastakori Gaspirni "Tamerlan" operasini yaratdi. Mazkur opera Vena teatrida sahnalashtirilgan. Hattoki, Antonio Vivaldi, Skolari, Gendel kabi bastakorlar ham bu mavzuda musiqa asarlari yaratganlar.

Hozirgi kunda Sohibqiron Amir Temur haqida bir nechta tarixshunos yozuvchilar izlanish olib bormoqda. Hali oldinda "Temur" nomi bilan mashhur bo'ladigan bir nechta asarlar bizni kutib turibdi. Zero, Amir Temurdek insoning umr yo'llari qancha yozilsa ham kam, xotirasi esa hamisha abadiy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lyuseyn Keren. Amir Temur sultanati. O'zbekiston NMIU-2018
- 2.G'ulom Jo'ra. Turonlik Sohibqiron Amir Temur. Toshkent-2015.

Foydalanilgan web-saytlar:

1. Tafakkur.net
2. Zyouz.com sayti

² Zyouz.comsayti